
Tumanda ma'naviy – ma'rifiy ishlar sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi

Bugun Rishton tuman hokimiligi axborot xizmati hamda tuman ma'naviyat va ma'rifat bo'limi hamkorligida "Tumanda ma'naviy, ma'rifiy sohalarda olib borilayotgan ishlar yuzasidan" ochiq muloqot o'tkazildi. Muloqotda tuman hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i M. Bekmirzaeva, tuman ma'naviyat va ma'rifat bo'limi xodimlari hamda jurnalistlar ishtirok etishdi. Muloqot davomida 2022 yilning o'tgan davri mobaynida tumanda ma'naviy, ma'rifiy sohalarda olib borilayotgan ishlar xususida ma'lumot berildi. Xususan, Rishton tumanida ma'naviy – ma'rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, Ma'naviyat va ma'rifat kengashlari, tashkiliy – huquqiy va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar tumandagi korxonalar, tashkilot, idora, muassasalar bilan hamkorlikda "Yo'l xaritalari" ishlab chiqildi. Ma'naviyat va ma'rifat kengashi tomonidan 2022 yil 6 oyi davomida 284 dan ziyod ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari, turkum uchrashuvlar, jonli muloqotlar tashkil etilib, ushbu tadbirlarda 12 mingdan ziyod aholining barcha qatlamlari qamrab olindi.

2022-06-28 15:37:51